

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISLOHOTLAR VA MILLIY YUKSALISH TAMOYILLARI

Nuriddin Xolmatov,

Jizzax politexnika instituti assistenti
(+99899) 149-50-50 nuriddin_2785@mail.ru

“Ma’naviyat boshqa sohalardan
oldinda yurishi, yangi kuchga,
yangi harakatga aylanishi kerak” Sh.M.Mirziyoev

Annotatsiya. Makolada jamiyatimizda milliy yuksalish, ma’naviyat yangicha dunyoqarashni shakllantirish, xalqimizda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish, buyuk ajdodlar an’anasini davom ettirishda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Jamiyat, ma’naviyat, milliy yuksalish, yangicha dunyoqarash, insoniy fazilatlar, yuksak ma’naviyat, ma’rifat, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar.

Abstract. The article analyzes the importance of spiritual-educational reforms in national development in our society, formation of a new worldview of spirituality, development of high human qualities in our people, continuation of the tradition of great ancestors.

Keywords. Society, spirituality, national progress, new outlook, human qualities, high spirituality, enlightenment, spiritual and educational reforms.

Bugungi kunda jamiyatimizda ma’naviyat yangicha dunyoqarashni shakllantirish, xalqimizda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish, buyuk ajdodlar an’anasini davom ettirish borasida ishonchli asos vazifasini bajarmoqda. Milliy-ma’naviy yuksalish sharoitida yangicha ong va yuksak ma’naviyat uchun kurash chinakam davlat siyosatiga aylandi. O‘tgan yillar mobaynida bu yo‘nalishda ulkan qadamlar qo‘yildi. Xalqimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o‘zgarimoqda va bu jarayon tobora chuqurlashib, yanada keng miqyos kasb etmoqda.

Ma’naviyat O‘zbekiston xalqi hayoti, mamlakat oldida qo‘ygan milliy va ma’naviy yuksalish maqsadlarini amalga oshirish uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat manbai hisoblanadi. Xalqimizni birlashtirib turadigan, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklab, unga tayangan holda O‘zbekistonda demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir.[1, 11-bet].

Jamiyatda ma’naviyat ijtimoiy barqarorlik, milliy manfaatlar ustivorligini ta’minlash, ilg‘or g‘oyalar yetakchilik qiladigan sog‘lom muhitni yaratishga yordam beradi. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar demokratik qadriyatlar, uning umume’tirof etilgan tamoyillarini ta’minlanishi va keng rivojlanishi jamiyatda qarashlar xilma-xilligi va fikrlar rang-barangligining qaror topishiga olib keladi. Kishilar ma’naviy yuksaklikka,

ruhan poklikka, teran mushohada qilishga va farovon hayot kechirishga intiladilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo yetishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda” deb ta’kidlangan. [2].

Bunday hayotga erishishning yullari ilg‘or maqsadlarda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy hayot tobora intensivlashib, intellektuallashtirib borayotgan, ilmiy tafakkur insoniyat ma’naviyatining asosiy yo‘nalishiga aylanayotgan hozirgi sharoitda ko‘prok ilmiy-nazariy asosga ega bo‘lgan ilg‘or g‘oyalar ustuvorlik kasb etadi. Ma’naviyat jamiyatda o‘z oldiga mamlakat taraqqiyotini, uning gullab-yashnashini ta’minlashdek ustivor maqsadlarni qo‘yadi. Bu maqsadlar inson manfaatlari, huquq va erkinliklari va qadr-qimmatini ro‘yobga chiqarib borishdek pirovard natijaga erishish yullari, vosita va usullarini belgilab beradi. A.Saitkasimovning ta’kidlashicha, “Ma’naviyat va ma’rifat fuqorolar, ijtimoiy guruhlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy jipslashuvi, “shaxs-jamiyat-davlat” tizimi barqarorligini ta’minlashga ko‘maklashuvchi omildir. Shuning uchun ham bugungi milliy yuksalish davrida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalasiga va targ‘ibot ishlariga yetarli darajada e’tibor berilmoqda”. [3, 8-bet].

Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari ishtirokini yanada kengaytirish, mahallaning mavqeini oshirish, aholini keng qamrovli ijtimoiy himoyalash, tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tamoyillari muhim hisoblanadi. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar aholining farovonligi, har bir shaxs va oila turmushining barqarorlashiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi - butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi. Nemis faylasufi Gegel iborasi bilan aytganda, “Har bir davlat qurilishi ma’lum xalq milliy-ma’naviy mahsuli, o‘zligini namoyon etish va ma’naviy-onglilik taraqqiyotining pillapoyasidir. Bu taraqqiyot zinani qadam-baqadam bosib, bir me’yordagi harakatni, vaqtdan o‘zib ketmaslikni taqozo etadi. Vaqt hamma narsaga qodir. Unda tafakkur, falsafa hamma narsa mujassam” [4, 469-bet].

Ma’naviyat inson ongi va tafakkurida vujudga keladigan, rivojlanadigan va sayqallanadigan fenomen bo‘lib, ijtimoiy hodisa hisoblanadi. U turli maqsad va muddaolarga erishish, rejalarni amalga oshirish uchun narsa, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risida ilgari surilgan ilg‘or tamoyillarni o‘zida ifodalaydi. Ma’naviyat shuningdek, ijtimoiy hayotda erishilgan yutuqlar, tajribalar va ko‘nikmalarni o‘zida mujassam etib, inson kayfiyati va ruhiyatiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, jamiyat va shaxsni kelajak sari sa’y-harakatga chorlaydi, yuksak istiqbol sari yetaklaydi.

Ma’naviyat xalqning o‘zligini anglashi, milliy g‘urur va ijtimoiy manfaatlarini ifoda etish bilan birga, mamlakatni dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini yanada yuksaltirishi bilan bog‘liq yuksak maqsadlarni ko‘zlaydi. U xalqimizni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan voqelikdir. Ma’naviyat odatda har bir xalq uchun ulkan poydevor, tayanch bo‘lishi bilan bir qatorda uni doimo

uyg‘oqlikda, sergaklikda saqlab turadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviyatni o‘tmishni va bugunimizni, bog‘lab turuvchi zanjir deb atasak to‘g‘ri buladi. Zero, “Ma’naviyat - inson hayotining gultoji. U har qanday sharoitda inson sha’nini, shavkatini, shonini, jamoatchilik orasidagi obro‘-e’tiborini belgilaydigan muhim omillardan biri. Ma’naviyat – insonni xurofotdan, jaholatdan qutqarguvchi qudrat. Uni muqarrar kamolotga yetkazguvchi, hayotini shukuhlarga to‘ldirguvchi ma’no, barcha illatlardan asraguvchi xaloskor!” [5, 30-bet].

Ma’naviyat butun bir millatning, qolaversa shu go‘shada yashab kelayotgan barcha xalqlarga taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston singari azaldan ko‘pmillatli davlatda umummanfaatlarni o‘zida ifodalab, umumxalqqa daxldor bo‘lgan voqelikka aylandi. Taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq o‘z kelajagini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yunalishlarini tanlab, ma’naviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo‘lgan ma’naviyat nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini yanada oshirishga qaratilgan, o‘z fuqarolik pozitsiyasini aniqlashga, ijtimoiy qiyofasini shakllantirish, uni yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan qat’iy chora-tadbirlar olib borishga ko‘maklashadi. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko‘zlagan jamiyatimizda ma’naviyat va ma’rifat aholining barcha qatlamlarini tafakkur tarzini barqarorlashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo‘lida birlashishga chorlaydi. Jamiyat ma’naviyati aynan mamlakatda istiqomat qiluvchi insonlarni jipslashtirishga, kelajak yo‘lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir shaxsni o‘ziga xos o‘rni bo‘lishiga erishishga safarbar etadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil– 11-B.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori. www.lex.uz.
3. A.Saitkasiimovning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” – Toshkent, Tafakkur, 2022 yil – 8-B.
4. Gegel «Filosofiya prava». M. - 1990. str. - 469.
5. N.Jo‘raev “Ma’naviyat - inson qalbining sarchashmasi”. –T. Ma’naviyat, 2015 yil 30-B.